



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.


Jumladan, 2024-yil 1-fevral holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 27 632 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 23 125 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 77,1 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 74,0 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 2024 yil 1-fevral holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024- yil yanvar oyida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (27 taga), axborot va aloqa (5 taga) oshganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, xususiy korxonalar 21 taga ko‘paygan.



Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	110	1,3%	Norin tumani	21	1,5%
shundan Davlatobod t.	19	0,9%	Mingbuloq tumani	19	1,5%
Yangi Namangan t.	27	1,4%	Kosonsoy tumani	18	1,1%
Pop tumani	39	1,9%	Namangan tumani	13	0,8%
Chust tumani	32	1,3%	Uchqo‘rg‘on tumani	13	0,7%
Uychi tumani	24	1,5%	To‘raqo‘rg‘on tumani	12	0,7%
Chortoq tumani	22	1,3%	Yangiqo‘rg‘on tumani	9	0,6%


2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yil 1- fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 27 632 tani tashkil etib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 1 343 taga oshganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 7 097 tadan 9 052 taga (o'sish 1 955 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 546 tadan 730 taga (o'sish 184 ta), yashash va ovqatlanish – 1 136 tadan 1 313 taga (o'sish 177 ta).



Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	8 573
shundan Davlatobod t.	2 074
Yangi Namangan t.	1 940
Chust tumani	2 389
Pop tumani	2 011
Uchqo'rg'on tumani	1 909
To'raqo'rg'on tumani	1 814


Chortoq tumani	1 759
Namangan tumani	1 731
Uychi tumani	1 654
Kosonsoy tumani	1 645
Yangiqo'rg'on tumani	1 445
Norin tumani	1 407
Mingbuloq tumani	1 295

2024- yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbatan (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 324 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 319 ta;
- yirik korxonalar 5 tani tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	106	1,5 %	Chortoq tumani	21	1,4 %
<i>shundan Davlatobod t.</i>	19	1,1 %	Mingbuloq tumani	19	1,8 %
<i>Yangi Namangan t.</i>	27	1,5 %	Kosonsoy tumani	18	1,3 %
Pop tumani	38	2,3 %	Uchqo'rg'on tumani	13	0,8 %
Chust tumani	32	1,6 %	Namangan tumani	12	0,8 %
Uychi tumani	23	1,7 %	To'raqo'rg'on tumani	12	0,8 %
Norin tumani	21	1,8 %	Yangiqo'rg'on tumani	9	0,8 %

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- fevral holatiga 23 286 taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,1 foizga oshdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish – 41,8 foiz, savdo – 27,6 foiz, yashash va ovqatlanish – 15,5 foiz, axborot va aloqa – 11,0 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Uchqo'rg'on 40,8 foiz, Pop 35,8 foiz, Chortoq 32,8 foiz, Norin 25,5 foiz, Mingbuloq 19,3 foiz, To'raqo'rg'on 17,4 foiz va Yangiqo'rg'on 13,1 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.



Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	7 293
shundan Davlatobod t.	1 712
Yangi Namangan t.	1 742
Chust tumani	2 060
Pop tumani	1 664
Uchqo'rg'on tumani	1 635
To'raqo'rg'on tumani	1 546


Namangan tumani	1 494
Chortoq tumani	1 491
Uychi tumani	1 389
Kosonsoy tumani	1 361
Yangiqo'rg'on tumani	1 145
Norin tumani	1 157
Mingbuloq tumani	1 051

2024- yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbatan (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2024- yil yanvar oyida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 19 tadan 46 taga (o'sish 27 taga), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida 2 tadan 8 taga (o'sish 6 taga) ko'paydi.

Shahar va tumanlar kesimida


Namangan shahar	102	1,4 %	Norin tumani	20	1,7 %
<i>shundan Davlatobod t.</i>	18	1,1 %	Mingbuloq tumani	19	1,8 %
<i>Yangi Namangan t.</i>	26	1,5 %	Kosonsoy tumani	18	1,3 %
Pop tumani	38	2,3 %	Uchqo'rg'on tumani	13	0,8 %
Chust tumani	32	1,6 %	Namangan tumani	12	0,8 %
Uychi tumani	23	1,7 %	To'raqo'rg'on tumani	12	0,8 %
Chortoq tumani	21	1,4 %	Yangiqo'rg'on tumani	9	0,8 %

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Namangan shahrida (31,2 foiz), Chust (8,8 foiz), Pop (7,2 foiz), Uchqo'rg'on (7,0 foiz), To'raqo'rg'on (6,6 foiz), Namangan hamda Chortoq (6,4 foizdan) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50,0 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	7 218	Namangan tumani	1 485
<i>shundan Davlatobod t.</i>	1 687	Chortoq tumani	1 485
Yangi Namangan t.	1 724	Uychi tumani	1 380
Chust tumani	2 045	Kosonsoy tumani	1 357
Pop tumani	1 655	Norin tumani	1 152
Uchqo'rg'on tumani	1 628	Yangiqo'rg'on tumani	1 143
To'raqo'rg'on tumani	1 530	Mingbuloq tumani	1 047

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2024- yil 1-fevral holatiga ko‘ra, birlikda

Shahar va tumanlar kesimida


Pop tumani	316
Chust tumani	267
Uchqo‘rg‘on tumani	223
Mingbuloq tumani	188
Namangan tumani	172
Namangan shahar	155
<i>shundan Davlatobod t.</i>	<i>56</i>
<i>Yangi Namangan t.</i>	<i>36</i>
To‘raqo‘rg‘on tumani	134
Uychi tumani	126
Chortoq tumani	107
Kosonsoy tumani	101
Yangiqo‘rg‘on tumani	88
Norin tumani	76



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda


Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	1 787
<i>shundan Davlatobod t.</i>	456
<i>Yangi Namangan t.</i>	530
Chust tumani	417
Namangan tumani	397
Kosonsoy tumani	374
To'raqo'rg'on tumani	341
Uychi tumani	321
Uchqo'rg'on tumani	262
Pop tumani	237
Norin tumani	226
Yangiqo'rg'on tumani	220
Chortoq tumani	207
Mingbuloq tumani	120



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat sohasining elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini sonining o'sish sur'ati 25,0 foizga oshgan.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 17,8 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,8 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 62,6 foizni), 2,0 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (76,4 foizni), 1,5 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (79,3 foizni) va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 87,5 foiz) ni tashkil etgan.



2024- yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	488
shundan Davlatobod t.	141
Yangi Namangan t.	128
Uychi tumani	167
Kosonsoy tumani	161
Chust t tumani	140
Uchqo'rg'on tumani	117
Chortoq tumani	117
Pop tumani	101
Norin tumani	97
Yangiqo'rg'on tumani	85
To'raqo'rg'o tumani	71
Namangan tumani	68
Mingbuloq tumani	50



Namanganda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 52,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,5 foizni tashkil etgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,2 foizni tashkil etgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 33,0 foiz ulushni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 58,2 foizni tashkil etdi.

248


Fuqarolik
obyektlarini qurish

549

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

865


Bino va
inshootlar qurish



2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	2 692
shundan Davlatobod t.	545
Yangi Namangan t.	627
Chortoq tumani	826
To'raqo'rg'on tumani	670
Chust tumani	663
Pop tumani	640
Uchqo'rg'on tumani	591
Namangan tumani	551
Norin tumani	519
Yangiqo'rg'on tumani	497
Uychi tumani	476
Mingbuloq tumani	486
Kosonsoy tumani	445



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Namanganda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 021 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 59,8 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 74,4 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 30,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 85,4 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 80,6 foizni tashkil etdi.

924

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 716

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 412

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	456
<i>shundan Davlatobod t.</i>	<i>106</i>
Yangi Namangan t.	87
Chust tumani	139
Pop tumani	126
Uchqo'rg'on tumani	93
To'raqo'rg'on tumani	91
Kosonsoy tumani	71
Norin tumani	66
Namangan tumani	64
Yangiqo'rg'on tumani	64
Mingbuloq tumani	53
Chortoq tumani	47
Uychi tumani	43



2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 15,6 foizga oshgan. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 6,4 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,6 foiz ulushini tashkil etdi.

84

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 229


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda


Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	174
<i>shundan Davlatobod t.</i>	23
<i>Yangi Namangan t.</i>	28
Chust tumani	35
Pop tumani	30
Uchqo'rg'on tumani	29
Uychi tumani	28
Namangan tumani	26
Chortoq tumani	23
Kosonsoy tumani	21
Norin tumani	17
To'raqo'rg'on tumani	17
Yangiqo'rg'on tumani	14
Mingbuloq tumani	11



2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 17,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 80,5 foizni tashkil etdi.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 37,6 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 78,0 foizni tashkil etdi. Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 45,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 79,7 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- fevral holatiga koʻra, birlikda

Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	282
<i>shundan Davlatobod t.</i>	70
<i>Yangi Namangan t.</i>	46
Chust tumani	61
Pop tumani	47
Kosonsoy tumani	48
Namangan tumani	46
Toʻraqoʻrgʻon tumani	43
Uychi tumani	43
Chortoq tumani	41
Uchqoʻrgʻon tumani	32
Norin tumani	31
Yangiqoʻrgʻon tumani	31
Mingbuloq tumani	25



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 635 ta yoki 87,0 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki: 95,5 foiz korxonalar sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri kelib, oʻsish surʼati 2023- yilning mos davriga nisbatan 96,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 2,3 foizni tashkil etib, oʻsish surʼati 94,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,2 foizini tashkil etib, oʻsish surʼati 84,2 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish

16



Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash

17




Sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat

697

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	330
shundan Davlatobod t.	100
Yangi Namangan t.	103
Chust tumani	166
Namangan tumani	81
Uychi tumani	67
To'raqo'rg'on tumani	58
Uchqo'rg'on tumani	50
Pop tumani	49
Yangiqo'rg'on tumani	47
Chortoq tumani	44
Norin tumani	32
Kosonsoy tumani	27
Mingbuloq tumani	21



2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,5 foiz ulushini tashkil etdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 79,1 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 87,3 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishi o'sish sur'ati 68,8 foizni tashkil etdi;


havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar o'sish sur'ati 50,0 foizni tashkil etdi;



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot
2024- yil 1-fevral holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024- yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbatan (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	95	Pop tumani	19
shundan Davlatobod t.	18	Kosonsoy tumani	14
Yangi Namangan t.	27	Uchqo'rg'on tumani	12
Chust tumani	27	Namangan tumani	11
Chortoq tumani	21	To'raqo'rg'on tumani	11
Norin tumani	20	Mingbuloq tumani	9
Uychi tumani	20	Yangiqo'rg'on tumani	7


2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Amalda 23 293 ta tijorat korxonalar va tashkilotlarining 2024- yil 1- fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 18 004 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: savdo – 40,0 foiz, sanoat – 20,6 foiz, qurilish – 7,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,1 foiz.

Shahar va tumanlar kesimida


Namangan shahar	6 035	Uychi tumani	1 127
shundan Davlatobod t.	1 461	Kosonsoy tumani	1 092
Yangi Namangan t.	1 480	Namangan tumani	1 079
Pop tumani	1 325	To'raqo'rg'on tumani	1 024
Chortoq tumani	1 321	Norin tumani	952
Uchqo'rg'on tumani	1 253	Yangiqo'rg'on tumani	919
Chust tumani	1 169	Mingbuloq tumani	708

2024- yil yanvar oyida, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbatan (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, suda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2024- yil yanvar oyida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2023- yilning mos davriga nisbatan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 24 taga ko'paygan.


Shahar va tumanlar kesimida

Pop tumani	18
Mingbuloq tumani	9
Namangan shahar	4
shundan Davlatobod t.	1
Kosonsoy tumani	3
Chust tumani	3
Uychi tumani	1

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024-yil 1- fevral holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan bo'lib. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Namangan shahar 930 ta, Chust 798 ta va Uchqo'rg'on tumanlarida 308 ta.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 1 498 ta, sanoat – 735 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 513 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 289 ta va qurilish sohasida – 237 ta.

Shahar va tumanlar kesimida


Namangan shahar	930	Namangan tumani	281
<i>shundan Davlatobod t.</i>	200	Pop tumani	280
<i>Yangi Namangan t.</i>	191	Kosonsoy tumani	221
Chust tumani	798	Uychi tumani	217
Uchqo'rg'on tumani	308	Norin tumani	158
To'raqo'rg'on tumani	305	Yangiqo'rg'on tumani	114
Mingbuloq tumani	300	Chortoq tumani	98

2024- yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbatan (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Sanoat



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	7	Norin tumani	1
Uychi tumani	2	Pop tumani	1
Chust tumani	2	To'raqo'rg'on tumani	1
Yangiqo'rg'on tumani	2	Uchqo'rg'on tumani	1
Mingbuloq tumani	1		
Kosonsoy tumani	1		
Namangan tumani	1		

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra 2020- yilning mos davriga nisbatan 431 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 99 tadan 313 taga (o'sish 214 taga), sanoatda – 250 tadan 361 taga (o'sish 111 taga), yashash va ovqatlanish – 90 tadan 148 taga (o'sish 58 taga), qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 42 tadan 55 taga (o'sish 13 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.


Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	241	Chortoq tumani	58
shundan Davlatobod t.	41	Chust tumani	58
Yangi Namangan t.	62	Pop tumani	40
To'raqo'rg'on tumani	188	Kosonsoy tumani	37
Namangan tumani	117	Mingbuloq tumani	29
Yangiqo'rg'on tumani	86	Uychi tumani	29
Uchqo'rg'on tumani	63	Norin tumani	23

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish



Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 100,9 foizni tashkil etdi.

Yetakchi o'rinni 57 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Namangan iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 22,5 foiz), Turkiya (ulushi 16,5 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,5 foiz) va Qozog'iston (ulushi 5,2 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	103
<i>shundan Davlatobod t.</i>	32
<i>Yangi Namangan t.</i>	22
Pop tumani	27
Chust tumani	17
Kosonsoy tumani	15
Uychi tumani	14

Chortoq tumani	11
Yangiqo'rg'on tumani	10
Namangan tumani	9
Norin tumani	8
To'raqo'rg'on tumani	8
Uchqo'rg'on tumani	6
Mingbuloq tumani	3

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 117 tasi qo'shma korxonalar, 114 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

61	Namangan shahar	42
18	<i>shundan Davlatobod t.</i>	14
13	<i>Yangi Namangan t.</i>	9
11	Chust tumani	6
8	Pop tumani	19
8	Kosonsoy tumani	7
6	Yangiqo'rg'on tumani	4
4	To'raqo'rg'on tumani	4
4	Uchqo'rg'on tumani	2
4	Norin tumani	4
3	Uychi tumani	11
2	Namangan tumani	7
2	Chortoq tumani	9
1	Mingbuloq tumani	2

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes hamda sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- yanvardagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Namangan viloyati statistika
boshqarmasi Statistik registrlarni
yuritish boʻlimi
Tel.: 69 227-84-96